O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

# FarDU. ILMIY XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON**
**ILOVA TO‘PLAM**

# НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

**G.T.Xusanova**
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....335
**M.A.Kuchkarova**
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения .........................338
**Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova**
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari ..........342
**K.Sh.Nishonova**
Boshlang'ich ta'limda integrativ ta'lim va uning turlari. ..........347
**A.R.Dilbarjonov**
Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari ..........350
**I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova**
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasi ..........354
**M.M.Abdumannopov**
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari ..........358
**T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova**
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari ....362
**N.A.Qodirova**
Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida)..........366
**Z.N.Ortiqova**
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari .....370
**M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva**
Ta'limda o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rni ..........377
**I.Kirgizov**
"Ey sabo" – komil insonga aksiologik yondashuv..........381
**A.T.Karimov**
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari ..........386
**A.M.Nurmuxammadjonov**
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati.....390
**M.M.Najmetdinova**
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari .........396
**M.Kurbanova**
Dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari..........400
**X.M.Shermatova**
Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati ..........403
**T.N.Shokirov**
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi ..........407
**B.M.Qurbonova**
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar..........410
**L.Sh.Shukurova**
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlari va uning ilmiy tahlili..........415
**A.A.A'zamjonov**
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rni..........419
**A.A.Abdisattorov**
Musiqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari ..........422
**I.D.Rustamov**
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rni (Doira cholg'usi misolida)..........428
**A.A.Ergashev**
Vokal-xor ta'limida finale-2003 dasturining qo'llanishi..........432
**A.A.Mamurov**
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari ..........438

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 30 Issue 3, 2024-yil DOI:10.56292/SJFSU/vol30_iss3_2t/a88

UO'K: 378+725.947.6

# MUSIQA FANI O'QITUVCHISINING IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

# ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ

# FACTORS OF DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF MUSIC TEACHER

**Abdisattorov Abdujalil Abdivali o'g'li**
Farg'ona davlat universiteti Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrasi katta o'qituvchisi

***Annotatsiya***

*Bo'lajak musiqa fani o'qituvchilarida ijodiy kompetenlikni rivojlantirish bo'yicha mavzuyimizda belgilab olingan maqsad va vazifalardan kelib-chiqib sinov ishlari 2020-2023-o'quv yillarida uch bosqichda amalga oshirildi: asoslovchi, shakllantiruvchi va ta'kidlovchi.*

*Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining ishonarliligi empirik ma'lumotlarni o'lchash sifati va nazariy xulosalarning to'g'riligiga bog'liq. Empirik ma'lumotlarni o'lchash va tahlil etishda axborotning ishonarliligi mezonidan foydalanildi. Ishonarli ma'lumot deganda nazariy va instrumental (tadqiqot birligini tanlash va ularning tavsifini o'lchash) xatoliklarning yo'qligi tushuniladi.*

***Аннотация***

*Исходя из поставленных в нашей теме целей и задач по развитию творческой компетентности будущих учителей музыки, тестовая работа проводилась в 2020-2023 учебном году в три этапа: основополагающий, формирующий и акцентирующий.*

*Достоверность результатов педагогических экспериментов зависит от качества измерения эмпирических данных и правильности теоретических выводов. Критерий достоверности информации использовался при измерении и анализе эмпирических данных. Достоверная информация означает отсутствие теоретических и инструментальных (выбор исследовательских единиц и измерение их описания) ошибок.*

***Abstract***

*Based on the goals and tasks set in our topic on the development of creative competence of future music teachers, the test work was carried out in 2020-2023 academic years in three stages: foundational, formative and emphasizing.*

*The reliability of the results of pedagogical experiments depends on the quality of empirical data measurement and the correctness of theoretical conclusions. The criterion of reliability of information was used in the measurement and analysis of empirical data. Reliable information means the absence of theoretical and instrumental (choosing the research unit and measuring their description) errors.*

***Kalit so'zlar:*** *O'qituvchi, ijodkorlik, maqsad, ijodiy metod, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri.*

***Ключевые слова:*** *Музыкальная наука, творчество, цель, творческий метод, оркестр узбекских народных инструментов.*

***Key words:*** *Music science, creativity, goal, creative method, Uzbek folk instruments orchestra.*

## KIRISH

Bo'lajak musiqa fani o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslariga tayangan holda tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Amaliy ishlarni o'tkazishdan maqsadni aniq belgilab olinishi, maqsadga erishishga imkon beradigan vazifalarning belgilab olinishi, vazifalarni ijobiy hal qilish asosida bo'lajak musiqa fani o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi jarayon texnologiyasini tanlanishi, shart-sharoitlarni yaratilishi tadqiqot olib borishning muhim tarkibiy qismi hisoblangan tajriba-sinov ishlari ahamiyatini oshiradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

"O'zbekiston yoshlari-2025 konsepsiyasi" ni ishlab chiqarish zaruriyatlarini vujudga keltirdi.

Musiqa asarlari shunday ulkan tarbiyaviy ta'sir kuchiga egaki, musiqiy ohanglar zamirida yashirinib yotgan obrazlar tinglovchining hayotiga , ichki ruhiy kechinmalari va tasavvurida qayta jonlanib, ma'naviy-axloqiy va estetik kamolotga erishishda yordam beradi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

2020-2023-yillarda Farg'ona davlat universiteti "Musiqa ta'limi" yo'nalishi talabalaridan 80 nafar, Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti "Musiqa ta'limi" yo'nalishi talabalaridan 96 nafar va Buxoro davlat universiteti "San'atshunoslik: musiqashunoslik" yo'nalishi talabalaridan 87 nafar talabalar respondent sifatida tanlab olindi. ***3.2-jadval*** Tadqiqot ishimizga ko'maklashish va ijodiy loyihada ishtirok etish uchun maxsus so'rovnomalardan o'tkazilgan va dasturimiz bilan to'liq tanishtirib chiqilgan Farg'ona davlat universiteti "Musiqiy ta'lim va madaniyat" va "Vokal va cholg'u ijrochiligi" kafedralaridan 7 nafar, Jizzax davlat pedagogika universiteti "Musiqa ta'limi" kafedrasidan 5 nafar, Buxoro davlat universiteti "Musiqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasidan 5 nafar professor-o'qituvchilar tanlab olingan. Jami 263 nafar talabalar va 17 nafar professor-o'qituvchilar tajriba sinov ishlarimizda to'liq ishtirok etdilar. Sinov davrida respondentlar sonida o'zgarishlar kuzatilmadi.

***3.2-jadval***

**Respondentlarning tarjiba va nazorat guruhlariga taqsimlash jadvali**

| № | Tanlangan OTM | Respondentlar soni Jami | Tajriba guruh respondentlari soni | Nazorat guruh respondentlari soni |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Farg'ona davlat universiteti | 80 | 40 | 40 |
| 2 | Jizzax davlat pedagogika universiteti | 96 | 49 | 47 |
| 3 | Buxoro davlat universiteti | 87 | 43 | 44 |
| **Jami** | | **263** | **132** | **131** |

Tajriba-sinov ishlarini boshlash va olib borish uchun 3.2-jadval taqsimotidagi tajriba va nazorat guruhlarini belgilash ishlari **amaliy, kreativ, emotsional** mezonlar asosida talabalar bilimi teksirildi. Nazoratlar tanlangan guruhlarda ommaviy va teng darajada o'tkazildi. 3.3-jadvalda talabalar bilimlarining dastlabki saralash (asoslovchi) bosqichidagi natijalari keltirilgan. Jadvaldagi ma'lumotlar 2020-2021 o'quv yilida o'tkazilgan sinovlarning natijalari.

**Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida mezonlar bo'yicha talabalar bilimini baholash natijalar**

**3.3-jadval**

| № | Tajriba-sinov ob'yektlari | O'zlash-tirish darajasi | Mezonlar | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Amaliy | | | | Kreativ | | | | Emotsional | | | |
| | | | TG | % | NG | % | TG | % | NG | % | TG | % | NG | % |
| 1 | FarDU | Yuqori | 9 | 22,5 | 10 | 25 | 8 | 20 | 8 | 20 | 6 | 15 | 7 | 17,5 |
| | | O'rta | 11 | 27,5 | 10 | 25 | 7 | 17,5 | 8 | 20 | 7 | 17,5 | 7 | 17,5 |
| | | Past | 20 | 50 | 20 | 50 | 25 | 62,5 | 24 | 60 | 27 | 67,5 | 26 | 65 |
| | | **Jami** | **40** | **100** | **40** | **100** | **40** | **100** | **40** | **100** | **40** | **100** | **40** | **100** |
| 2 | JDPU | Yuqori | 9 | 18,4 | 10 | 21,3 | 10 | 20,4 | 11 | 23,4 | 8 | 16,3 | 8 | 17 |
| | | O'rta | 11 | 22,4 | 10 | 21,3 | 11 | 22,4 | 11 | 23,4 | 9 | 18,4 | 8 | 17 |
| | | Past | 29 | 59,2 | 27 | 57,4 | 28 | 57,1 | 25 | 53,2 | 32 | 65,3 | 31 | 66 |
| | | **Jami** | **49** | **100** | **47** | **100** | **49** | **100** | **47** | **100** | **49** | **100** | **47** | **100** |
| 3 | BuxDU | Yuqori | 10 | 23,3 | 11 | 25 | 9 | 20,9 | 9 | 20,5 | 8 | 18,6 | 9 | 20,5 |
| | | O'rta | 10 | 23,3 | 10 | 22,7 | 10 | 23,3 | 9 | 20,5 | 8 | 18,6 | 8 | 18,2 |
| | | Past | 23 | 53,5 | 23 | 52,3 | 24 | 55,8 | 26 | 59,1 | 27 | 62,8 | 27 | 61,4 |

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Jami | 43 | 100 | 44 | 100 | 43 | 100 | 44 | 100 | 43 | 100 | 44 | 100 |
| JAMI | | Yuqori | **28** | 21,2 | **31** | 23,7 | **27** | 20,5 | **28** | 21,4 | **22** | 16,7 | **24** | 18,3 |
| | | O'rta | **32** | 24,2 | 30 | 22,9 | **28** | 21,2 | **28** | 21,4 | **24** | 18,2 | **23** | 17,6 |
| | | Past | **72** | 54,5 | **70** | 53,4 | **77** | 58,3 | **75** | 57,3 | **86** | 65,2 | **84** | 64,1 |
| | | **Jami** | **132** | **100** | **131** | **100** | **132** | **100** | **131** | **100** | **132** | **100** | **131** | **100** |










3.3-jadvaldan ko'rinib turibdiki har bir oliygohda tajriba va nazorat guruhlarning mezonlar bo'yicha respandentlar bilimi bir-biriga juda yaqin. Bu esa sinov uchun tanlab olingan ishtirokchilar guruhlarga to'g'ri taqsimlanganligini ifodalaydi. Asoslovchi bosqich natijalariga asoslanib sinov ishlarimizning shakllantiruvchi bosqichini davom ettirishga asoslar yetarli. Ushbu bosqichda tadqiqot mazmunini o'zida aks ettirgan dastur bo'yicha assistent professor-o'qituvchilar yordamida 1 o'quv yili davomida tajriba guruhlarda mashg'ulotlar olib borildi va jarayon bo'yicha doimiy ma'lumotlar yig'ilib tahlil qilindi. O'z navbatida nazorat guruhlari ham amaldagi o'qitish tizimi bo'yicha mashg'ulotlarni davom ettirdi va ularning ham natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar yig'ilib tahliliy o'rganildi. Ma'lumotlar ishonarli va o'sish dinamikasi biz kutgan natijalarga kelayotganiga

amin bo'lish maqsadida shakllantiruvchi bosqichning birinchi yarmi, ya'ni yarim o'quv yili yakunlangandan so'ng belgilab olingan mezonlar bo'yicha talabalar bilimi qayta sinovdan o'tkazildi. Bu davr 2021-2022-o'quv yilining 1-yarmi yakuniga to'g'ri keladi.

**Bo'lajak musiqa fani o'qituvchilarida ijodiy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining o'rta bosqichida mezonlar bo'yicha talabalar bilimini baholash natijalari**

**3.4-jadval**

| № | Tajriba-sinov obyektlari | O'zlashtirish darajasi | Mezonlar | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Amaliy | | | | Kreativ | | | | Emotsional | | | |
| | | | TG | % | NG | % | TG | % | NG | % | TG | % | NG | % |
| 1 | FarDU | Yuqori | 10 | 25 | 10 | 25 | 10 | 25 | 9 | 22,5 | 9 | 22,5 | 8 | 20 |
| | | O'rta | 12 | 30 | 11 | 27,5 | 9 | 22,5 | 9 | 22,5 | 10 | 25 | 8 | 20 |
| | | Past | 18 | 45 | 19 | 47,5 | 21 | 52,5 | 22 | 55 | 21 | 52,5 | 24 | 60 |
| | | **Jami** | **40** | **100** | **40** | **100** | **40** | **100** | **40** | **100** | **40** | **100** | **40** | **100** |
| 2 | JDPU | Yuqori | 12 | 24,5 | 11 | 23,4 | 13 | 26,5 | 13 | 27,7 | 10 | 20,4 | 9 | 19,1 |
| | | O'rta | 12 | 24,5 | 10 | 21,3 | 12 | 24,5 | 11 | 23,4 | 11 | 22,4 | 9 | 19,1 |
| | | Past | 25 | 51,0 | 26 | 55,3 | 24 | 49,0 | 23 | 48,9 | 28 | 57,1 | 29 | 61,7 |
| | | **Jami** | **49** | **100** | **47** | **100** | **49** | **100** | **47** | **100** | **49** | **100** | **47** | **100** |
| 3 | BuxDU | Yuqori | 12 | 27,9 | 11 | 25 | 12 | 27,9 | 12 | 27,3 | 11 | 25,6 | 9 | 20,5 |
| | | O'rta | 11 | 25,6 | 11 | 25 | 10 | 23,3 | 10 | 22,7 | 9 | 20,9 | 9 | 20,5 |
| | | Past | 20 | 46,5 | 22 | 50 | 21 | 48,8 | 22 | 50,0 | 23 | 53,5 | 26 | 59,1 |
| | | **Jami** | **43** | **100** | **44** | **100** | **43** | **100** | **44** | **100** | **43** | **100** | **44** | **100** |
| JAMI | | Yuqori | **34** | 25,8 | **32** | 24,4 | **35** | 26,5 | **34** | 26,0 | **30** | 22,7 | **26** | 19,8 |
| | | O'rta | **35** | 26,5 | **32** | 24,4 | **31** | 23,5 | **30** | 22,9 | **30** | 22,7 | **26** | 19,8 |
| | | Past | **63** | 47,7 | **67** | 51,1 | **66** | 50,0 | **67** | 51,1 | **72** | 54,5 | **79** | 60,3 |
| | | **Jami** | **132** | **100** | **131** | **100** | **132** | **100** | **131** | **100** | **132** | **100** | **131** | **100** |










3.4-jadval jadvalda keltirilgan natijalar Farg'ona davlat universiteti tajriba guruhining misolida tahlillarni ko'rib chiqsak. "Amaliy" mezon bo'yicha dastlabki bosqichda talabalar bilimining yuqori darajasi 9 tadan 10 nafarga, bilimi o'rta darajada baholangan talabalar 11 nafardan 12 nafarga oshganligini. Past o'zlashtirishli talabalar soni esa 20 nafardan 18 nafarga kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Bu ko'rsatkichlar tadqiqot maqsadiga erishish uchun yetartli o'sish dinamikasiga mos emas. Lekin sinov jarayonining yakuniga yetmaganligini, tegishli mezonlar bo'yicha talabalar bilimini baholashda bu davr natijalarini yakuniy asos qilib olinmasligi inobatga olinsa, sinov jarayonining ikkinchi bosqichi arifmetik progressiya qoidalariga monand olib borilayotganligi, o'qitish bo'yicha dasturga o'zgartirishlarsiz protsesni davom ettirish mumkinligini ta'kidlashimiz mumkin.

## XULOSA

Xulosa qilib bo'lajak musiqa fani o'qituvchilaridagi ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lish darajalari va uni aniqlash tartiblari to'g'risidagi ilmiy qarashlarni tahlil etish asosida bo'lajak musiqa fani o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish mezonlari aniqlashtirildi: ijobiy emotsional tasavvurlarlarga egalik; ijodiy qiziqish; mustaqil qaror qabul qilish; o'zining kuch va imkoniyatlariga

ishonch; aniq maqsadga yo'nalganlik; emotsionallik; muammoni ko'ra olish; alternativ (muqobil) fikrlash; fikrning aniqligi; xotiraning assotsiativligi; idrok etishning yaxlitligi va mustaqilligi; ijodiy fikrlash; tolerantlik; intuitsiyaning rivojlanganlik darajasi.

Bo'lajak musiqa fani o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish dinamikasini mezonlar asosida tahlil etish tajriba-sinov ishlarining barcha bosqichlarida amalga oshirilib, maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlar asosida kamchiliklar bartaraf etib borildi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллин Э. Б. Методы новой системы музыкального обучения. — В кн.: Выбор методов обучения в средней школе. М., 1981.
2. Ayxodjaeva Sh.I. Maqom taronalari (janr xususiyatlari, ijro an'analari): Avtoref. ... san'atshunoslik fan. nom. - Toshkent: O'zbekiston davlat konservatoriyasi, 2007. - 15 b.
3. Акопян Н. А. Психологические особенности педагогического общения учителя музыки с детьми. Автореф. дис. ... канд. психол. наук. М., 2002.
4. Akramova A.A. Bo'lajak o'qituvchilar fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda shaxsga yunaltirilgan texnologiyalarni o'rni. // Zamonaviy ta'lim. 2017. № 4. – 56 b.
5. Аликулов Х. Эстетические воззрения мыслителей Средней Азии и Хорасана (ХУ1-ХУ вв.) / Под ред. академика АНУз. М.М.Хайруллаева. - Тошкент: Фан, 1992. -С.98.
6. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. - Toshkent.: "Fan", 1974. -B.221.
7. Alieva L. (2019). Kreativ ta'limning o'quvchilarda emosional intellekt va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishdagi roli. Молодой учёный, 63(7), 43-46.
8. Abduvali o'g'li, A. A. (2023). XX ASR MUSIQA SAN'ATI RIVOJINING BA'ZI XUSUSIYATLARI. Gospodarka i Innowacje., 35, 729-734.
9. Абдусатторов, А. А. Ў. (2023). ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 521-526.
10. Бурҳонов, Р. М., Алиев, С., Габриэлян, С., & Гиенко, Б. ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ Абдусатторов Абдужалил Абдували ўғли.